



ALISHER NAVOIY IJODIDA ILOHIY ISHQ OBRAZI

Ergasheva Nilufar Akramjon qizi

O'zbekiston Milliy universiteti

Jurnalistika va o'zbek filologiyasi

fakulteti 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning "O'n sakkiz ming olam oshubi agar boshindadur" g'azali, muhabbat mavzusidagi ruboiy, tuyuq va fardlari tahlil qilinadi. Qanday badiiy san'atlardan foydalangani va g'azal hamda ruboilarning asosiy g'oyasi, mazmuniga alohida e'tibor beriladi.

Annotation:

In this article, Alisher Navoi's ghazal "O'n sakkiz ming olam oshubi agar boshindadur", rubai, tuyuk and "fard"s on the theme of love are analyzed. Particular attention is paid to what artistic arts are used and the main idea and content of ghazals and rubai.

Kalit so'zlar:

Alisher Navoiy, ilohiy ishq, o'n sakkiz ming olam, husn, hayrat, takalluf, taassuf, gulxan, qadah, Majnun va h.k.

Keywords:

Alisher Navoi, Divine Love, Eighteen Thousand Worlds, beautiful, surprise, Takalluf, Taasuf, Bonfire, Kadah, Majnun, etc.



Muhabbat – yorug‘ olamda insonning yashab qolishi uchun eng katta umid. Umidki, yoshlik davrining inja tuyg‘ulari, hislari va yashamlari umumlashgan umid. Alisher Navoiy bu go‘zal tuyg‘u, bu go‘zal dardni turli xil janrlarda o‘z ko‘ngil aytimlarini izhor etadi. G‘azal, ruboiy, tuyuq va fardlaridagi sevgi, ishq timsoli ba’zan yor obrazida kelsa, ba’zan *ilohiy Qahramon* ya’ni ilohiy sevgi *Sohibi* obrazida keladi.

Hazrat Navoiyning muhabbat umidiga yo‘g‘rilgan “*O‘n sakkiz ming olam oshubi agar boshindadur*” g‘azali ayni keksalik davrida yozilgan. Demak, muhabbat fasl, yosh va mezon tanlamaydi. U xoh o‘rta yosh, xoh qarilik chog‘ida bo‘lsin, ichida o‘n sakkiz yosh tafti o‘lmaganligidan darakdir. Ushbu g‘azal “*Badoyi ul-vasat*” ning 156-g‘azali, ramali musammani maxzuf vaznida yozilgan bo‘lib, g‘azalda ta’rif-tavsif uslubi yaqqol sezilib turadi. Har bir inson qalbida bir dengiz, bir daryo shoshib-toshib oqadi, ayqiradi, o‘z tilida har zamon hayqiradi. O‘n sakkiz yosh – ana shu dengizning ayni shiddat bilan oqayotgan, jo‘sh urayotgan, hatto o‘n sakkiz ming olamlarga sig‘maydigan davridir. Navoiy qalamga olgan davr dengizning to‘lqiniday shiddatli matla’ bilan boshlanyapti:

*O‘n sakkiz ming olam oshubi agar boshindadur,
Ne ajab, chun sarvinozim o‘n sakkiz yoshindadur.*

“*O‘n sakkiz ming olam*” degan tushunchani diniy afsonalardan butun dunyo, butun olam, butun koinot, umuman nafas olayotgan, yashayotgan, bor ekani tan olingan, buyuk kitoblarda aytilgan o‘simlik , havo, suv va aqlga sig‘adigan hamma-hamma narsa ya’ni butun borliq tushuniladi. Bizdan oldin ham, bizning davrda ham va bizdan keyin ham bu tushuncha o‘z ma’no va mohiyatini yo‘qotmasa kerak. “*O‘n sakkiz ming olam*” — u butun borliq o‘n sakkiz ming olamdan iborat, degan olamning cheksizligi haqidagi afsonaviy, qadimiy tasavvurlardan kelib chiqqan. Shoir ta’rif bergen “*sarvinozim*” so‘ziga to‘xtalsak, *sarv - qaddi raso, xushqomat*



degan ma'nonda qo'llansa, o'n sakkiz ming olam g'avg'osi bor uning boshida ammo bunga ajablanmaslik kerak, chunki u o'n sakkiz yoshda degan ma'noda tushunish ham mumkin. Bu baytda Navoiy birgina ana shu xushqomat dilbar haqida gapirmoqchi emas nazdimda, umuman, insonning o'n sakkiz yoshiga ta'rif beradi. O'n sakkiz yosh – tabiiy va umuminsoniy hodisa. Hech kim o'n sakkizga kirmay, o'n to'qqizga o'tganini eshitmaganmiz. Demak, g'azaldagi o'n sakkiz yosh qiz ham umumlashma obraz, ramz bo'lishi mumkin. Ikkinchchi baytda esa:

*Desa bo'lg'aykim, yana ham o'n sakkiz yil husni bor,
O'n sakkiz yoshinda buncha fitnakim boshindadur.*

Inson o'n sakkiz yil husnga ega bo'lishi uchun tug'ilganidagi ilohiy nur, ilohiy go'zallikni yo'qotmasligi kerak. Alisher Navoiy mazkur husnning cheksizligiga cheksizlik qo'shadi. O'z sohibjamolining har bir lahzasi ana shunday latofat, go'zallikdan iborat bo'lgan yana tag'in o'n sakkiz yilning husni borligidan xabar beradi. Uchinchi baytda:

*O'n sakkiz yil dema, yuz sakson yil o'lsa, uldurur,
Husn shohi... ul balolarkim ko'zu qoshindadur.*

Shoir birinchi va ikkinchi baytlarini inkor etib, g'oyani kuchaytirish maqsadida o'n sakkiz yil o'tsa ham, yuz sakson yil o'tsa ham bu husn baribir yo'qolmaydi. Bu husn uning ko'z-u qoshida. Sharq adabiyotida ko'zning xunxorligi, jalloqligi, fitnagarligi, qoshning shamshir kabi qattolligi, birining xushmuomala qilib, birining jon olishi kabi sifatlar juda ko'p qo'llanadi. Jon olar darajada husni – balosi ko'z-u qoshi demak:

Hayrat etmon husni naqshidaki, har hayratki bor,



Barchasi Ezid taolo sun'i naqqoshindadur.

Yaratganning yaratiqlari oldida taslimlik va hayratda qolishdan ko‘ra, tabiiy hol chunki U o‘n sakkiz ming olamning, yer yuzidagi barcha yaratiqlarning, mavjudotlarning Yaratuvchisi. Aqli va ziyrak kitobxon shu baytda bir sirni payqashi kerak, Navoiy nega aynan “*Barchasi Ezid taolo sun'i naqqoshindadur*” deyapti? Nazarimda, bu yerda shoir sarvinozining husni, go‘zalligi orqali Naqqoshning husnini milliarddan bir bo‘lsa-da tasavvur etishga chorlayapti. Naqshni naqadar go‘zal ekanini baytlar bilan ta’riflab beryapti. Hali shoir bilmagan, ko‘rmagan naqshlar qancha ekan bu olamda? Oxiri bormikan bu go‘zalliklarning? Bejiz yuqorida “sarvinoz”ni tip demadim. Keyingi baytlarga yuzlansak:

*Tan anga siymu ichinda tosh muzmar ko‘nglidin,
Aqlg‘a yuz hayrat ul oyning ichu toshindadur.*

*May ketur, ey mug‘ki, yuz hayrat aro qolmish Masih,
Bul’ajablarkim, bu eski dayir xuffoshindadur.*

Yorning tashqi ko‘rinishi hayratomuz. Ammo, uning ko‘ngli toshdan ham qattiq. Hatto aql bovar qilmaydi, shuncha husnni Ichida toshyurak yashiringanini deya kinoya qiladi. Ya’ni bu dunyoda sirti go‘zal ko‘ringan hamma narsa ham yaxshi bo‘lavermaydi, shakl emas, mazmun muhim degan falsafa ham bor. Va shoir keying baytda, may keltir toki yuz hayratimni may yuvsa deya Masihga ishora qiladi. Bu baytda “xuffosh”— ko‘rshapalak obrazi topib kiritilgan. Go‘yo ataylab. Ko‘rshapalak lirik qahramonning o‘zginasi. Mayxona (dunyo) ajoyibotlarini ko‘rguncha (Illohiy ishq mayidan ichmaguncha), ko‘zi ko‘r edi. “Eski dayr”



ajoyibotlarini bilgach, uyqudan endi uyg‘ongan odamdek yana hayratda qoladi. May va Masih yangi hayot baxsh etgandek. Maqta’sida esa:

*To Navoiy to ‘kti ul oy furqatidin bahri ashk,
Har qachon boqsang quyosh aksi aning yoshindadur.*

Navoiy umrining oxirigacha ul oy (sarvinozi) ishqida yosh to‘kdi. Va shoirning ko‘zyoshida har qachon boqqanimizda quyosh aksini ko‘ramiz. Ya’ni ul oy shoir ko‘zyoshlarida jilolanib, tovlanib, shulalanib turaveradi...

Alisher Navoiy bu mavzuni **ruboiy** janrida ham qalamga oldi. Faqat talqin, ma’no va mazmun umuman o‘zgacha:

*Gar oshiq esang, zebu takallufni unut,
Yaxshiyu yamon ishda taxallufni unut,
O’tgan gar erur yamon, taassufni unut,
Kelgan gar erur yaxshi, tasarrufni unut.*

Yuqoridagi g‘azalda ham Navoiy oshiqlik maqomida umrining oxiriga qadar sobit turdi. Bu ruboiyning birinchi misrasida ham “Gar oshiq bo‘lsang, zeb – ziynat, husn, ko‘rk, tashqi ko‘rinish-u takalluf – soxta lutf, sun’iy sevgi, jimjimadorlik, mulozamatni unut,” deydi shoir. Yolg‘on sevgi, yolg‘on oshiqlik yaxshilikdan emas. Ikkinchi misrada, “Yaxshi, yomon ishda taxalluf ya’ni o‘zing uchun, manfaating uchun qilinadigan har narsani, u xoh yomonlik, u xoh yaxshilik bo‘lsin, hammasini unut, bu yo‘lda sen faqat oshiqsan” demoqchidir ehtimol. Uchinchi misrada oshiqning ham sal tarafini olib, “Agar umringda nima yomonlik va taassuf – afsuslanish, achinish, kuyinish bo‘lsa unut”, zero “kelgan nima bo‘lsa ham sen uchun yaxshi, yaxshilikka, ana shu yomonliklarni tasarrufga - o‘zinga olishni unut” deya tahlil qilsak ham bo‘lar. Ushbu ruboiyda oshiq bo‘lsang bu



yo‘lda hamma yomonlikni va hamma manfaatni unut, kelgan hamma narsa yaxshilikka degan ma’no yetakchilik qiladi.

Navoiy **tuyuq** janrida ham muhabbat mavzusini yetarlicha yoritgan:

*Ul pari ishqida bu devonani,
Eyki istarsen, kelib gulxanda ko ‘r.
Bir qadah ul gulni xandon ayladi,
Ey ko ‘ngul, nazzora qil, gul xanda ko ‘r.*

Ikkinchi misrada kelgan “Gulxanda ko‘r” o‘z ma’nosida, “Ul parining ishqida yongan oshiq, devonani istasang agar gulxanda - o‘tda ko‘r, sevgida qanday yonayotganini kelib ko‘r”-, deya ochiq aytadi. “Gul xanda ko‘r” esa bir qadah, bu qadah bo‘lishi mumkin ilohiy sevgi mayi yoki ko‘ngliga yoquvchi bir so‘z. Ana shu bir so‘z yoki bir qadah ilohdan kelgan may uni shod etdi. Endi shoir o‘z ko‘ngliga murojaat qilib, “Ey ko‘ngul, bir nazar sol-da gulni xanda – kulganini, shod bo‘lganini ko‘r”-, deya tugatadi. Haqiqiy muhabbatni javobi bor ekaniga bir ishoradir balki bu tuyuq.

Alisher Navoiy ijodida hatto fardlarida ham oliy ishq, muhabbat mavzusi oxorini to‘kmadi. Quyidagi **fard** misol bunga:

*Aqlu xushim qolmadi, ko ‘rgach ul oyni bodano ‘sh,
Iztirobimdin hamonokim, to ‘kuldu aqlu xush.*

Oy so‘zi vositasida istiora xosil qilib, qaytarish san’ati ham misralar mazmunini va shaklini o‘zaro mutanosib holga keltiradi. Aqlu xushim qolmadi ul go‘zalni ko‘rib, bu iztirobdan aql-u xushim ham to‘kildi, deydi shoir. Yana boshqa **fardda**:

Voqif ermas yor, jon bersam buzug‘ koshonada,



Shah ne ogah, xasta Majnun o 'lsa bir vayronada.

Ushbu fardni estetik ruhini oshirgan **talmeh** san'atidir. Ya'ni Majnun obrazi qo'shilishi. Oshiqona ruh bilan yo'g'rilgan mazkur misralarda koshona va vayrona so'zлari **tazod** san'atini ham hosil qilgan. Va bu badiiy san'atlar fardning g'oyasi ya'ni oshiqning yor yo'lida jon berishga, hatto o'lishga tayyor ekanini ochib berishda yordam beradi.

Alisher Navoiy ijodi serqirraligi bilan semazmum ham. Har bir janr o'ziga xos va o'ziga mos shakli, ruhi ham bordir. Navoiyni ilohiy ishq borasida yozgan dengizdan tomchi; g'azal, ruboiy, tuyuq, fardlarini ko'rdik. Yor ishqisi, ya'ni shaxs sevgisi va Xudoga nisbat berilgan ishq orasidagi ko'prik katta sir aslida. O'zi bunday ko'prik qo'yishga haqlimizmi, degan savol ham tug'iladi. Naqshni go'zalligi shuncha hayratga sabab bo'lar ekan, Naqqoshining usta ekaniga shubxa yo'q. Hazrat ijodida esa Naqqoshga oshiqlikning betakror suratlarini ko'ramiz. Yuqorida tahlil qilgan ijodiy ishlar ummondan bir tomchi xolos.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. MAT. 20 tomlik. – Toshkent: Fan, 1991. T. 7.
2. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. MAT. 20 tomlik. – Toshkent: Fan, 1991. T. 8.
3. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. MAT. 20 tomlik. – Toshkent: Fan, 1992. T. 9.
4. Alisher Navoiy. Sab'ai sayyor. MAT. 20 tomlik. – Toshkent: Fan, 1992. T. 10.



5. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. MAT. 20 tomlik. – Toshkent: Fan, 1993. T. 11.
6. Talabov A. Arab aruzi. – Toshkent: ToshDU, 1977.
7. Talabov E. Arab she’riyatida aruz tizimi. Filol. fan. dok. diss. ... avtoref. – Toshkent, 2004.
8. To‘ychiyeva G. Islom davri she’riyatida aruz tizimi va uning evolyutsion taraqqiyoti. Filol.fan.bo‘yicha doktor. (Dss) diss... – Toshkent, 2018.
9. Shoabdurahmonov Sh. Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980.
10. Yusupova D. Alisher Navoiy “Xamsa”sida mazmun va rit mnning badiiy uyg‘unligi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011.